

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NON KONSEPTI TAHLILI

Akramova Nilufar A'zamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

**10.00.06-qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15662704>

O'zbek tilida azal-azaldan non tushunchasi eng aziz ne'mat, rizq-ro'z manbai, xonadonning ko'rki, to'kin-sochinligi, barakasi ramzi sifatida ulug'lanib talqin qilib kelinadi. Buni milliyligimizning, o'ziga xos an'ana va urf-odatlarimizning ma'lum bir bo'lagi deb atashimiz mumkin. Avlodlarga milliy madaniy urf-odat, an'analar, albatta, oila davrasida, oila vositasida yetkaziladi. Mehmon kelganda dasturxon yozilganda, eng avvalo non qo'yilishida ham o'ziga xos ramziy ma'no bor.

1. Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r.
2. Bir bo'lak nonsiz hashamatli uy ham g'am-g'ussa makoni,
3. Non bo'lsa, daraxt osti ham jannat makoni.
4. Bir to'yib non yeganim, yarim boy bo'lganim.
5. Birovning yog'li nonidan, o'zingning zog'orang yaxshi.
6. Birovning noni qorning og'ritar.
7. Bolali ona nonga to'ymas, bolali g'oz — donga.
8. Bor, bor — ishga bor, ishlamagan — nonga zor.
9. Borning bolasi mol deb turar,
Yo'qning bolasi non deb turar.
10. Boy ko'zi xonda, g'arib ko'zi nonda.
11. Boyning jon bergani bilinmas, g'aribning — non bergani.
12. Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin.

Non konsepti ishtirok etgan paremlar o'zbek xalqini milliy taomlari, yeguliklari va ularni tayyorlashda faol qo'llanadigan unsur hamda ular bilan bog'liq milliy, madaniy, etnik, ijtimoiy, axloqiy qarashlarini ifodalovchi lingvokulturologik birlikdir. O'zbek tilidagi non konseptini ifodalovchi paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi o'zbek tilining lisoniy va madaniy o'ziga xosligini tadrijiy takomilini va yashovchanligini o'rganishda muhim ahamiyatga molikdir. Barcha xalq maqollari kabi bu non uzvli maqollarda ham mazmuniy quymalik, kenglik, purma'nolilik hamda badiiyat mujassam. Non leksemasi bizning madaniyatimizning lisoniy birliklarimizda faolfaol ishtirok etib, lingvomadaniy jihatdan kundalik turmushumizning asosiy unsurlaridan biridir. Non leksemasi xalq paremlarida insonning asosiy qadriyatlari – halollik, hurmat, baraka va mehnatga bo'lgan ehtiromni ifodalaydi. Bu esa o'zbek xalqi madaniyatining namoyondasi sanaladi. Paremlar orqali xalq rizqining muhimligi, uni qadrlash va hurmat qilish lozimligini avloddan-avlodga o'rgatib keladi. Nonning xalq ijodidagi ramziy o'rni xalqning dunyoqarashi va turmush falsafasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Non – oila va jamiyatning muhim unsurlaridan biridir. Non nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki insonlarni birlashtiruvchi muhim qadriyat hamdir. O'zbek xalqida non hurmat qilinib, u oila barqarorligi va jamiyat birdamligini mustahkamlovchi ramz hisoblanadi. Har bir oila dasturxon atrofida jam bo'lib, birga nonushta yoki kechki ovqatni iste'mol qilish orqali o'zaro mehr-oqibatni mustahkamlaydi

Non bo'lsa, daraxt osti ham jannat makoni.

Bu yerda dunyoning anvoyi taomlari o'rniga aynan non so'zi keltrilgan. Nondan boshqa turli taomlar, mevalar va har xil pishiriqlardan ko'ra aynan non konsepti keltrilgan. Bu so'z barcha uchun birdek tushunarli va butun millatning sevimli mahsuloti va taomnomasining ajralmas qismidir.

Noning halol bo'lsa, hayoting to'g'ri bo'ladi,
Harom non yegan oxir-oqibat qashshoqlanadi,
Non bo'lgan joyda urush bo'lmaydi
Non xalqning boyligi.

Avval – non, keyin – in'om,

Boyning jon bergani bilinmas, kambag'alning – nonbergani,

Butun non – azobi jon, yarim non – huzuri jon”, “Yaxshi joningga o'rtoq, yomon –noningga.

Ushbu maqollar orqali non konsepti aynan bir narsa emas, balki tushuncha, muhim bir yemakni ifodalab keladi. Ularni umumlashtirib taom ma'nosida umumlashib keladi. “Avval-non, keyin-in'om” maqolida inson mehmonga avvalo non emas, avval taom tortadi, lekin bu yerda ma'no umumlashtirilib, taom ma'nosini ifodalagani uchun barcha uchun bu konsept umumiy oziq-ovqat timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi ushbu maqollarni ko'rib chiqsak:

Bu maqollarda ham ingliz tilida aynan non konsepti kundalik eng muhim yegulik sifatida ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Man does not live by bread alone: This proverb emphasizes that while bread is essential for survival, it's not the only thing that fulfills human needs.

- Ushbu maqol non inson uchun muhim, lekin faqat non yeyish bilan yashab bo'lmaydi deb ifodalanadi.
- **Half a loaf is better than none:** This proverb suggests that even a small amount of something is preferable to having nothing at all.
- **Bread and butter:** This phrase refers to one's livelihood or source of income.
- Ushbu maqol yarimta non yo'qdan ko'ra yaxshi degan ma'noni bildiradi.
- **Know which side one's bread is buttered on:** This proverb suggests being aware of one's own best interests.
- Birovning qiziqishlarini bilish-insonning qaysi tomoniga yog' surilganini bilish.
- **Take the bread out of someone's mouth:** This phrase means to deprive someone of their livelihood. Kimningdir yashash uchun bor-yo'g'idan mahrm qilmoq.
- **Every day brings its bread with it:** This proverb suggests that each day will provide what is necessary. Har bir kun o'zining kerakli narsalarini olib keladi.
- **Dry bread at home is better than roast meat abroad:** This proverb emphasizes the value of security and comfort in one's own home. Uydagi qulaylik va xafvsizlikning ahamiyati katta, ko'chadagi narsalardan yaxshiroq.
- **Bread always falls on the buttered side:** This proverb suggests that things tend to go wrong for people who are not careful.

Xulosa

O'zbek tilida non muqaddas va alohida ahamiyatga ega ardoqli mahsulot hisoblanib, uning qadr-qimmatini alohida darajaga ko'tariladi. Non uvog'i ko'p aziz, uni ko'zga surtamiz. Non ham

non, ushog'i ham non. Non — hamma ne'matlarning sultoni. Ushbu maqollardagi non konsepti uning o'zbek xalqi madaniyati va turmush tarzi uchun qanchalik muhim va ardoqli tushuncha ekanligini ko'rsatib beradi. Ular yillar davomida shakllanib, alohida ahamiyatga ega tushunchalarni bildiradi. Hozirgi kunda bu urf-odatlar yanada milliy harakatlar bilan boyitilib, yangi tushuncha va milliy qadriyatlarga boy kundalik turmush tarzimizni ko'rsatib beradi. Ayollarning a'za marosimlariga, bemor yo'qlash va turli joylarga mehmon bo'lib borishida, to'y marosimlariga borishida non ko'tarib borishlari bugungi kunda ham nonning ahamiyati kamaymaganligini, balki ortib borayotganligini ifodalaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Gafur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 127b.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
3. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол.фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2002. – 136 б.
4. Ayto, John. The Glutton's Glossary, a Dictionary of Food and Drink Terms. Routledge, New York, NY, 1990.
5. Giora, Rachel. *On Our Mind. Salience, Context, and Figurative Language*. Oxford University Press, New York, NY, 2003.
6. Knowles, Elizabeth, editor. The Oxford Dictionary of Phrase and Fable. Second Edition. Oxford University Press, New York, NY, 2005, 2006.
7. Pinnaia, Laura. *Sugar and Spice ... Exploring Food and Drink Idioms in English*. Polimetrica, Corso Milano, Italy, 2010.
8. Terban, Marvin. Giulio Maestro, illustrator. *Mad as a Wet Hen and Other Funny Idioms*. Clarion Books, New York, NY, 1987.
9. Judith Siefring. Oxford Dictionary of Idioms. Oxford University Press – 2004 1974
10. Dictionaty of Oxford Online Wisdom Online Dictionary
11. Comparison of food-related idioms in English and Uzbek Nashirova Shakhnoza Burievna Associate Professor, Karshi State University, PhD, Uzbekistan Received: 28 January 2025; Accepted: 28 February 2025; Published: 31 March 2025